## IX. KICHIK TADBIRKORLIK

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, ularning faoliyati uchun qulay muhit yaratish borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar natijasida, 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida 7799 ta kichik biznes subyektlari (dehqon va fermer xo‘jaliklarisiz) tashkil etilib, ularning soni 48 294 taga yetdi.

2022- yil 1- yanvar holatiga viloyatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 44 156 tani tashkil qildi. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga qaraganda 9,8 %ga oshgan. Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya’ni 5020 tasi (jamiga nisbatan ulushi 11,4 %) Zangiota tumani, 4100 tasi (9,3 %) Qibray tumani, 3178 tasi (7,2 %) Toshkent tumani, 2467 tasi (5,6 %) Angren shahri, 2479 tasi (5,6 %) Chirchiq shahri, 2403 tasi (5,4 %) O‘rta Chirchiq tumani, 2383 tasi (5,4 %) Yangiyo‘l tumani hissalariga to‘g‘ri keladi.

| Eng katta ulush | Eng kichik ulush |
|---|---|
| Zangiota tumanida 11,4 % | Bo‘ka tumanida 2,8 % |
| Qibray tumanida 9,3 % | Nurafshon shahrida 2,8 % |
| Toshkent tumanida 7,2 % | Bekobod tumanida 2,8 % |
| Angren shahrida 5,6 % | Oqqo‘rg‘on tumanida 2,7 % |
| Chirchiq shahrida 5,6 % | Ohangaron tumanida 2,6 % |
| O‘rta Chirchiq tumanida 5,4 % | Piskent tumanida 2,6 % |
| Yangiyo‘l tumanida 5,4 % | Ohangaron shahrida 2,4 % |

**Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi,** *%da*




2022- yil 1- yanvar holatiga viloyatimizda yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 7 799 tani tashkil qildi. Bu esa o‘tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 532 taga yoki 9,3 %ga kamaygan.

**Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlarining yillar kesimida soni,** *birlikda*



**Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlarining yillar kesimida o‘sish dinamikasi,** *1- yanvar holatiga %da*




**Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi**
*2021- yil yanvar-dekabr holatiga (jamiga nisbatan %da)*



Eng ko‘p kichik biznes subyektlari savdo sohasida (jami tashkil etilgan subyektlarning 36,5 %), sanoatda (20,0 %), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida (11,8 %), yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar (8,6 %) hamda qurilishda (7,1 %) tashkil etilgan.

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan:

- yalpi hududiy mahsulotning 46,8 %i (2020- yil yanvar-dekabrda 49,2 %) kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarildi;

- sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 14 407,4 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat ishlab chiqarishining 17,3 %ini (2020- yil yanvar-dekabrda 18,9 %) tashkil qilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 105,0 %ga to‘g‘ri keldi;

- qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklarining ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan xizmatlar) hajmi 28 506,4 mlrd. so‘mni yoki jami qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi yalpi mahsulotining 93,5 %ini (2020- yil yanvar-dekabrda 90,8 %) tashkil qilib, o‘sish sur’ati 106,8 %ni tashkil qildi;

- 13 327,9 mlrd. so‘mlik investitsiyalar o‘zlashtirildi, bu umumiy investitsiyalar hajmining 47,9 %ini (2020- yil yanvar-dekabrda 38,9 %) yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 146,6 %ni tashkil qildi;

- 7 063,0 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, qurilish ishlari umumiy hajmining 77,6 %ini (2020- yil yanvar-dekabrda 77,4 %) tashkil qildi va 2020- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 10,6 %ga ko‘paydi;

- avtomobil transporti yuk aylanmasining 53,5 %i (2020- yil yanvar-dekabrda 60,1 %) hamda yo‘lovchi aylanmasining 97,3 %i (2020- yil yanvar-dekabrda 97,3 %) amalga osirilib, o‘tgan yilning yanvar-dekabriga nisbatan o‘sish sur’ati mos ravishda 107,3 va 109,8 %ni tashkil qildi;

- ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 15 207,0 mlrd. so‘mni yoki jami xizmatlar hajmining 70,6 %ini (2020- yil yanvar-dekabrda 69,3 %) tashkil qilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 118,8 %ga to‘g‘ri keldi;

- chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 79,5 %i (2020- yil yanvar-dekabrda 83,7 %) yoki 21 381,6 mlrd. so‘mi shakllantirilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 109,4 %ni tashkil qildi;

- 469,9 mln. AQSh dollari miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilinib, umumiy eksport hajmining 23,4 %ini (2020- yil yanvar-dekabrda 28,1 %) tashkil qildi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 6,3 %ga kamaydi;

- 1 264,6 mln. AQSh dollari miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilinib, umumiy import hajmining 38,3 %ini (2020- yil yanvar-dekabrda 45,6 %) tashkil qildi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 2,2 %ga kamaydi.

**Yalpi hududiy mahsulot va iqtisodiyot tarmoqlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmida kichik tadbirkorlik (biznes) ulushining o‘zgarishi**
*(yanvar-dekabr oylarida, umumiy hajmga nisbatan % hisobida)*